

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ISMOIL SOMONIYNING TARIXDA TUTGAN O'RNI

M. Abduvayitov

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali
TTKT fakulteti 23-06 guruh talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Ismoil Somoniyningning hayotiy yo'llari, chinakam qobiliyat sohibi ekanligi, somoniylar sulolasining yirik vakili, davlat boshqaruvda tutgan o'rni hamda Movarounnahrni o'z qo'li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtirishi.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, Xuroson, Buxoro, somoniylar, arab xalifaligi, hukmdor, noib,

Ismoil tarixda kuchli sarkarda va hukmdor sifatida tanilgan; arab va fors manbalarida u haqida ko'plab hikoyatlar yozilgan. Qolaversa, uning shimolga qilgan yurishlari tufayli uning imperiyasi dushman bosqinlaridan shunchalik kuchli ediki, Buxoro va Samarqand mudofaasi foydalanilmay qolgan edi.

Buxoro noibi Ismoil akasi Nasrga itoat qilishni istamaydi. O'ziga berilgan viloyatni mumkin qadar iqtisodiy jihatdan mustaqil idora qilishga intiladi. Samarqandga Nasrning xazinasiga yuboriladigan har yilgi soliqlarni turli bahonalar bilan to'xtatib qo'yadi. Natijada aka-uka o'rtasida adovat paydo bo'ladi. U 888-yildagi jangga olib keladi. Jangda Nasr qo'shinlari tormor keltiriladi. Nasr yana 4 yil hukmdorlik qilib o'ldi. 892- yildan boshlab Ismoil butun Movarounnahrni birlashtirib, uning yagona hukmdori bo'lib oladi. Ismoil Somoniy o'rta asrlarning qobiliyatli, serg'ayrat va nihoyatda zukko davlat arbobi edi. U Movarounnahrni birlashtirgach, mustahkam feodal davlatni tuzishga intildi. U o'z Vatanida barqaror tinchlikni ta'minlab, uni mustahkamlashda hukmronlik qobiliyatining hamma nozik xususiyatlarini ishga soldi. Avvalo katta qo'shin to'plab, ko'chmanchilar dashtiga askar tortdi. 893-yilda Taroz shahrini fath etib, dashtliklarga qaqshatqich zarba berdi. Bu somoniylar davrida ko'chmanchilarga qarshi qilingan oxirgi katta yurish bo'ldi.¹ Natijada dashtlik qabilalarning Movarounnahr viloyatlariga bo'lgan uzluksiz bosqinlari barham topib, o'troq aholi

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Ismoil_Somoniy



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

endilikda vohalar atrofi bo‘ylab yuzlab kilometr ga cho‘zilgan mudofaa devorlariyu, son-sanoqsiz qal’alarni bino qilish va ularni muttasil ta’mir lab turishdek og‘ir va mashaqqatli mehnatdan va tashvishdan forig‘ bo‘ldi. Xuddi shu davrdan boshlab, 300 km dan oshiqroq masofada Buxoro vohasining atrofini o‘rab turgan qadimiy mudofaa inshooti Kampirak devorining har yilgi odatiy hashari to‘xtalib, u qarovsiz qoldirilgan. Narshaxiyning yozishicha Amir Ismoil o‘zining kuchli qo‘shinlarini nazarda tutib, "Toki men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo‘laman, — deb aytgan ekan.

Movarounnahr aholisining mustaqillikka erishib, bu diyorda somoniylar davlatining tobora kuchayib borishi shubhasiz sharqiy viloyatlardan muttasil undirib olinadigan katta boyliklardan mahrum bo‘lgan Arab xalifaligini, bir tomondan, nihoyatda ranjitsa, ikkinchi tomondan cho‘chitar ham edi. Shu boisdan xalifalik safforiylar bilan somoniylarni to‘qnashtirishga va bu ikki davlatni har ikkisini ham zaiflashtirib, bu boy viloyatlarda, ma’lum darajada, o‘z ta’sirini qayta tiklashga harakat qiladi. 900-yilda ular o‘rtasida boshlanib ketgan urush Ismoilning g‘alabasi bilan tugaydi. Butun Xuroson somoniylar qo‘l ostiga o‘tadi. Noilojlikdan xalifa Ismoilning bunday ulkan davlatini tan olishga va unga hukmdorlik yorlig‘ini yuborishga majbur bo‘ladi. Shunday qilib, IX asr oxirlarida Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadiy xalos bo‘ldi. Ismoil Somoniy butun Movarounnahrni o‘z qo‘li ostida kuchli bir davlat qilib birlashtirdi. Xurosonda tashkil topgan Safforiylar davlatiga barham berdi va uni o‘z davlatiga qo‘shib oldi. Natijada poytaxti Buxoro shahri bo‘lgan zamonasining eng yirik mustaqil feodal davlati tashkil topdi. Ismoil Somoniy to 907-iy yil hukmdori qilib o‘ldi. Bu davlatni somoniylar xonadonidan bo‘lgan hukmdorlar — amirlar X asr oxirlarigacha idora qiladilar.

Somoniylar davrida O‘rta Osiyoning qo‘shni davlatlar va xalqlar bilan madaniy va savdo aloqlari yanada kengaydi va o‘zviylashdi. Movarounnahr va xurosonlik olimlar – Abdullo Ro‘dakiy, Abumansur Daqiqiy, Abulqosum Firdavsiy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nars Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abulabbos al-Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Narshaxiy kabilar o‘zlarining buyuk ixtirolari va tadqiqotlari bilan nafaqt o‘z o‘lkalaridagina emas, balki butun mashriqu mag‘ribda mashhur bo‘ldilar. E’tiborli tomoni shundaki, bu olimlar qomusiy bilimlar sohiblari bo‘lishgan. Ular fanning turli sohalarida ijod etib, dunyo madaniyati va fanining rivojlanishiga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shdilar. Ular ixtiro etgan kashfiyotlar faqatgina ularning nomlariga boqiyliq baxsh etmay, balki butun



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

xalqimizning obro‘-e‘tiborini dunyoga taratdi.

Bu davrga oid moddiy topilmalar, me‘moriy yodgorliklar xalqimizning yuksak madaniyatidan, nozik dididan, chuqur bilimidan va ijodiy parvozidan guvohlik berib kelmoqda. Uzoq davom etgan hastalikdan so‘ng Ismoil 907-yil 24-noyabrda vafot etdi va uning o‘rniga uning o‘g‘li Ahmad Samoniy taxtga keldi.

Ismoil Somoniy maqbarasi - Buxoro shahar madaniyat va istiroqat bog‘i hududida joylashgan ko‘hna me‘moriy yodgorlik, Somoniylar davlatining asoschisi Ismoil Somoniy va uning avlodlari maqbarasi (taxminan 864-868). Maqbara O‘rta Osiyo me‘morligi va san‘ati tarixidagi dastlabki maqbaralardan bo‘lib, uning tuzilishida qadimiy sug‘d me‘morligining an‘analari saqlanib qolgan buyuk me‘moriy asardir. Ismoil Somoniy maqbarasi Ismoil Somoniy maqbarasining yaqindan ko‘rinishi. Ismoil Somoniy maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib va qoida asosida yaratilganligi aniqlangan. Maqbara 4 tomoni bir xil chordara shaklida, jimjima g‘ishtin bezaklari chiviqli to‘siq yoki qamish, buyra to‘qimasini eslatadi. Devor qalinligi —1,8 m, tarhi — tashqarisi 10,80x10,70 m, ichkarisi 7,20x7,20 m. Usti gumbaz bilan qoplangan. 4 burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 qubba o‘rnatilgan. Devor tepasida kungirasimon darcha (40 ta). Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos g‘ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetiga mayda gishtdan chorsi tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bezak bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uslub jihatdan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag‘alidagi ustma-ust ravoqchalar ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar 8 qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Arxeologik qazilma vaqti (1927)da xona sahnida 2 yog‘och sag‘ana borligi aniqlangan. Yozma manbalar va rivoyatlarga kura, maqbarani Ismoil Somoniy otasi qabri ustiga qurdirgan. Sharq tomondagi sag‘ana Ismoil Somoniy qabri (849—907) deb taxmin etiladi. Narshaxiy Buxoro tarixi kitobida Ismoil Somoniyning o‘g‘li amir Ahmad (914 y) o‘z qullari tomonidan o‘ldirilgan va mazkur maqbaraga qo‘yilgan deb yozadi. M. Saidjonov topgan Vaqfnoma (868 y)da zikr etilishicha, otasi amir Ahmad mozoridan Registongacha bo‘lgan yerlarning bir qismi maqbaraga vaqf etilgan.ⁱⁱ1925 yilda gumbazi ta‘mir etilgan. V. Vyatkin boshchiligida arxeologik tekshiruvlar olib borilgan. Binoni ko‘mib yuborgan zax tuproqlardan tozalanib, B. Zasipkin va Usta Shirin Murodov boshchiligida ta‘mirlangan (1937—39). ko‘p boylik berdi va o‘ziga hech nima olib qolmadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Somoniylar hukmronligi davrida poytaxt shahar bo'lgan Buxoroda Ismoil Somoniyning maqbarasi — ajoyib me'moriy yodgorlik, sulola maqbarasi joylashgan. Pomirning eng baland nuqtasi 1998 yildan Ismoil Somoniy nomi (avvalroq Kommunist nuqtasi) bilan yuritiladi, shuningdek, Dushanbedagi shaharcha va 4 tumanidan biriga uning nomi berilgan. 1999 yil Tojikistonda Somoniylar davlatining 1100-yilligi nishonlangan, Dushanbening Do'stiy maydonida tojiklar davlati birinchi hukmdori Ismoil Somoniy xotirasiga bag'ishlangan 113 metrlik me'moriy ansambl bunyod etilgan. Tojikistonda mamlakat asoschisi xotirasiga Ismoil Somoniy ordeni ta'xis etilgan, hukmron surati tushirilgan pul birligi kiritilgan, ma'muriy tumanlar, shaharchalar, maydon va ko'chalarga uning nomi berilgan.

i

<https://uz.advisor.travel/poi/Ismoil-Somoniy-maqbarasi-767>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://fayllar.org/ismoil-somoniy-va-uning-faoliyati-ismoil-somoniyning-maqbarasi>.
2. <https://cyberleninka.ru>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ismoil_Somoniy
4. Istoriya Uzbekistana. – T.: Fan, 2012.
5. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. T., 2004.
6. Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. T., 2000.
7. Низомулмулк. "Сиёсатнома". Тошкент. Ўнги аср авлоди - 2019. - Б.31.
8. Halim To'raev. Buxoro tarixi (o'quv qollanma).-Buxoro. - 2020.- B.97
9. A. Muhammadjonov O'zbekiston tarixi.-T.: Sharq, - 2017. - B.47.

